



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA
PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**“MARKAZIY OSIYO DAVLATCHILIGI
TARIXIDA TURKIY
XALQLARNING TUTGAN O‘RNI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA
MATERIALLAR TO‘PLAMI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSYIALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX VA FALSAFA KAFEDRASI**



**MARKAZIY OSIYO DAVLATCHILIGI TARIXIDA TURKIY
XALQLARNING TUTGAN O‘RNI**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI



DENOV – 2024

**РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ**

**ДЕНОВСКИЙ ИНСТИТУТ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И
ПЕДАГОГИКИ**

КАФЕДРА ИСТОРИИ И ФИЛОСОФИИ



**РОЛЬ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ В ИСТОРИИ
ГОСУДАРСТВЕННОСТИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ



ДЕНАУ – 2024

**REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND
INNOVATIONS
DENOV INSTITUTE OF ENTREPRENEURSHIP AND
PEDAGOGY
DEPARTMENT OF HISTORY AND PHILOSOPHY**



**THE ROLE OF TURKIC PEOPLES IN THE HISTORY OF
STATEHOOD IN CENTRAL ASIA**

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

COLLECTION OF MATERIALS



DENAU – 2024

Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida turkiy xalqlarning tutgan o‘rni [Matn]: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami / D.Yaqubova, B.Nazirov, M.Jo‘rayev, I.Norbo‘tayev – Termiz: Bekshox print servis, 2024. – 898 b.

Mas’ul muharrir:

M.Jo‘rayev – DTPI, Tarix va falsafa kafedrası katta o‘qituvchisi

Tahrir hay’ati:

D.Yaqubova, B.Nazirov, M.Jo‘rayev, I.Norbo‘tayev

Tuzuvchilar:

D.Yaqubova – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.Nazirov – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.Jo‘rayev – DTPI, Tarix va falsafa kafedrası katta o‘qituvchisi

I.Norbo‘tayev – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar:

S.Tursunov – Tarix fanlar doktori, professor

A.Mengliboyev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ushbu to‘plam Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida turkiy xalqlarning tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallarini o‘zida mujassam etgan. To‘plamda tarix, falsafa, siyosatshunoslik sohalari bo‘yicha jahon va respublikamizdagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ilmiy tadqiqot institutlarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, olimlar, islomshunos, sharqshunos, manbashunos, tarixchilar, shuningdek, yosh ilmiy tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari asosida yozilgan maqolalar jamlangan. Mazkur to‘plam materiallarida turkiy xalqlarning tarixiy jarayonlarda davlat tuzilmasini rivojlantirishda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda, shuningdek, madaniy aloqalarni mustahkamlashda tutgan o‘rni o‘z ifodasini topgan. To‘plam tarix sohasida izlanish olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchi va pedagoglarning ilmiy-amaliy faoliyatlarini samarali tashkil etishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. To‘plamga kiritilgan materiallarda keltirilgan raqam, fakt va ma’lumotlar uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ilmiy-uslubiy kengashining 2024-yil __noyabrdagi 4-son majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

© Termiz, 2024

oldinroq davrga to'g'ri keladi, ammo Temuriylar davlatchiligi shakllanishi davrida mahallalardagi fuqarolarga e'tibor yanada shakllandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-dekabrda «Mahalla» ma'rifiy teleradiokanalini tashkil etish va raqamli teleko'rsatuvlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2014. 51-son, 603-modda; 2017. 2-son, 25-modda. – B. 9-11.
3. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – T., 1999-yil 14-aprel. 758- I-son.
4. Abdullaev U.I. O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. - T.: Akademiya, 2009. - B. 142;
5. Ishquvatov V, Tolipov F. Mahalla: o'tmishda va bugun. — Toshkent, 2014. 234 b,
6. Iso Jabborov. O'zbeklar. T., «Sharq».2008.239-b.
7. Isoqov B. Jamiyat tarraqiyoti asosi. »Namangan» 2007.118.b.
8. Jalilov .Sh. Fuqarolik jamiyatining poydevori. T., «O'zbekiston», 2003 y. 203 bet.

* * *

Barotov Sirojiddin Bahridinovich
Mirzo Ulug'bek nomli O'zMU tadqiqotchisi

ASHTARXONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGINING TASHQI SAVDO MUNOSABATLARI

Annotation

The article analyzes the relations of the Khanate of Bukhara with neighboring countries in the 17th century and the first half of the 18th century, the establishment of diplomatic and trade relations between them, and the role of these processes in the economic and political life of the Khanate of Bukhara.

Keywords: Lower Novgorod fair, Khoji Tarkhan (Astrakhan), Kazan, Arkhangelsk, Tobolsk, Tara, Tyumen, Tomsk, Nogai land, Western Siberia, Orenburg, Troitsk "Bukharas", Irtish line, velvet, zandana, carpet, felt, silk, leather, ruby, emerald, silver, tin, saltpeter, ivory, wooden utensils, wax, honey, hunting equipment, hunting birds,

lead and gunpowder, geopolitical, expedition, Bekovich-Cherkassky expedition, red paint, nil

Внешнеторговые связи Бухарского ханства в эпоху Аштарханидов

Аннотация

В статье анализируются отношения Бухарского ханства с соседними странами в XVII и первой половине XVIII века, установление дипломатических и торговых отношений между ними, а также роль этих процессов в экономической и политической жизни обеих стран.

Ключевые слова: Нижегородская ярмарка, Ходжи Тархан (Астрахань), Казань, Архангельск, Тобольск, Тара, Тюмень, Томск, Ногайская земля, Западная Сибирь, Оренбург, Троицкая «Бухара», Иртышская линия, пепел и порох, геополитическая, экспедиция, экспедиция Бековича-Черкасского, красная краска, nil
Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligining tashqi savdo munosabatlari

Annotatsiya

Maqolada XVII asrda va XVIII asrning I yarmida Buxoro xonligining qo'shni davlatlar bilan munosabatlari, ular o'rtasida diplomatik va savdo aloqalarining yo'lga qo'yilganligi va bu jarayonlarning Buxoro xonligi iqtisodiy va siyosiy hayotida tutgan o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Quyi Novgorod yarmarkasi, Xoji Tarxon(Astraxan), Qozon, Arxangelsk, Tobolsk, Tara, Tyumen, Tomsk, No'g'oy yurti, G'arbiy Sibir, Orenburg, Troitsk "Buxoroliklar", Irtish chizig'i, baxmal, zandana, zarbof, gilam, kigiz, ipak, teri, la'l, yoqut, zumrad, kumush, qalay, selitra, fil suyagi, yog'och idishlar, mum, asal, ov anjomlari, ov qushlari, qo'rg'oshin va porox, geosiyosiy, ekspeditsiya, Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi, qizil bo'yoq, nil

Qadim zamonlardan boshlab O'rta Osiyo hududida mavjud bo'lgan davlatlar o'zlariga qo'shni bo'lgan mintaqadagi xalqlar bilan keng ko'lamli savdo-sotiq munosabatlarini olib borganlar. O'rta Osiyo mintaqasi savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi ham tashqi savdo aloqalarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Qo'shni davlatlar bilan muntazam diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi ham tashqi savdoning rivojlanishiga xizmat qilgan.

Buxoro xonligining XVII-XVIII asrning birinchi yarmidagi tashqi aloqalariga e'tibor qaratsak, bu davrda shayboniylar davridagidek, ayniqsa, Ubaydullaxon va Abdullaxon II davridagi kabi faol tashqi diplomatik siyosat ko'zga tashlanmaydi [1, 275-b.]. Shunday ekan bu holat o'z navbatida Buxoro xonligi tashqi savdo aloqalarining ham sust borganligini anglatadi. Xonlik dastlabki paytlarda asosan yaqin qo'shni bo'lgan davlatlar bilan savdo aloqalarni yo'lga qo'ygan. Keyinchalik esa, savdo aloqalari kengayib borgan. Bu aloqalar O'rta Osiyo davlatlari o'tmishida muhim rol o'ynagan. Bu o'lkadan G'arbiy Osiyoni Xitoy va Mo'g'uliston bilan bog'laydigan karvon yo'llari o'tgan [2, 74-b.]. O'rta Osiyoning Buxoro, Xiva, Balx va boshqa yirik shaharlaridan chiqqan savdo karvonlari Hindiston, Eron, No'g'oy yurti, qozoq cho'llari, Qoshg'ar va Sibirgacha bulgan o'lkalarga borganlar. O'z navbatida ko'rsatib o'tilgan shahar va o'lkalardan esa O'rta Osiyo shaharlariga tinimsiz savdo karvonlari qatnab turgan [2, 75-b.]. XV asr oxirida boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar O'rta Osiyodan o'tuvchi karvon yo'llari faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Bu hol O'rta Osiyo davlatlari iqtisodiy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, qo'shni mamlakatlar bilan savdo aloqalari to'xtab qolmadi. Moskva, Sibir, no'g'oylar yurti, qozoq juzlari va qo'shni Sharq mamlakatlari bilan elchilik munosabatlarining olib borilishi savdo-sotiq aloqalari bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirildi. XVI-XX asrlarda Buxoro xonligi Rossiya, Hindiston, Eron, Xitoy, Afg'oniston va boshqa qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy va siyosiy aloqalarni amalga oshirgan [3, 3-4-b.]. Xonlik poytaxti Buxoro shahrining savdo markazi sifatidagi o'rni katta bo'lgan. Bu haqda Mirzo Olim Maxdum Hoji o'z asarida: *"Buxoro bir tarafdin Hindu, Chin, Eron va Afg'oniston ila va bir tarafdin Rusiya ila ijro qilinib turgan bir tijoratning markazidur"* deya ta'riflaydi [4, 191-b.]. Rossiya davlati bilan aloqalarning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Jumladan, Ya.V. Xanikov o'zining Orol dengizi xaritasiga bag'ishlangan asarida bu aloqalar hatto VIII asrda boshlanganligini aytib o'tadi [5, 282-b.]. Xonliklar va Rossiya o'rtasidagi savdo va diplomatik aloqalar ko'pgina ma'lumotlar rus elchilari va sayyohlari esdaliklarida uchraydi. S.V.Jukovskiy o'zining "Uchyuz yil davomida Rossiyaning Buxoro va Xiva bilan aloqalari" nomli esdaliklarida Buxoro va Rossiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar va savdo-sotiq munosabatlari haqida ma'lumot berib o'tadi [6, 1-2-b.]. Yana bir rus sayyohi Russov o'zining "1753-yilda Orenburgdan Xivaga samaralik savdogar Rukavkinning sayohati" kitobida Buxoro, Xiva xonliklari va Rossiya munosabatlari haqida ma'lumotlarni xronologik tartibda berib o'tgan [7, 11-14-b.]. XVI asr va XIX asrning I yarmida O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari uchta yo'nalishda olib borilgan: birinchi yo'nalish-Volgabo'yi orqali(Astraxan va Quyi Novgorod yarmarkasiga borilgan), ikkinchi

yo'nalish-Ural(Orenburg va Troitsk shaharlariga), uchinchi yo'nalish-G'arbiy Sibirga. Buxoro xonligining Sibir bilan aloqalariga to'xtalsak, bu aloqalar uzoq o'tmishga borib taqlishiga guvoh bo'lamiz. Sibir xonlik hunarmand va savdogarlari uchun qulay bozor hisoblangan. Xonlik savdogarlari O'rta Osiyo davlatlari ichida son va salohiyat jihatidan ustun bo'lganligi uchun rus rasmiy hujjatlarida butun xonliklarga nisbatan Buxoro, xonliklar aholisi esa, "buxoroliklar" deb yuritilgan [8, 5-b.]. Buxoro va Xiva xonligidan chiqqan savdo karvonlari quruqlik yo'llari orqali Samara, Qozon, Astraxan va rusning boshqa shaharlariga borishardi. Safar yo'llari uzoq va xavf-xatardan xoli bo'lmagan. Savdo karvonlari ko'pincha ko'chmanchi qabilalar hujumlariga duchor bo'lar va katta talofat ko'rardi. Ma'lum vaqt o'tgach, O'rta Osiyolik savdogarlar Rus shaharlarida uzoq muddatga qolib, savdo ishlari bilan shug'ullana boshlaydilar. Hattoki, Astraxan shahrida maxsus buxorolik savdogarlar istiqomat qiladigan "Buxoroliklar" nomli mahalla bo'lgan. Bundan kelib chiqadiki, O'rta Osiyolik savdogarlar ichida buxoroliklarning mavqeyi baland bo'lgan. Buxoro savdogarlari Astraxandan tashqari Tobolsk va Sibirgacha bo'lgan hududlarda savdo qilganlar. Rus podshosi Mixail Fyodorovich buxoroliklarga Astraxan, Qozon, Arxangelsk kabi shaharlarda erkin va uzoq muddatga savdo qilish huquqini hamda ularning xavfsizligini ta'minlashni buyurgan [9, 43-44-b.]. Bunday imkoniyatlarning berilishi Rossiya va Buxoro xonligi o'rtasidagi savdo-sotiq ko'lamining yanada kengayishiga va rivojiga hissa qo'shgan. XVII asrda quruqlikdagi savdo yo'llaridan tashqari, suv yo'llaridan ham foydalanilgan holda Rossiya hudulariga borilgan. Shulardan biri, Buxorodan Urganchga, so'ngra, Orol dengizi sohillari bo'ylab Emba va Ural daryolari orqali Astraxanga borilgan. Ikkinchisi, Urganchdan shimoli-g'arb tomonga yurish orqali Mang'ishloq va Qarag'anda bandargohiga borilgan. Savdogarlar bu bandargohdan Kaspiy dengizi orqali Astraxanga o'tganlar. O'rta Osiyodan Rossiyaga olib boradigan yana bir yo'l janubiy-g'arbiy tomon yo'nalgan bo'lib, Mashhad, Astrobod, Ashraf, Rasht, Talishi, Boku, Darband, Bo'ynashi va Tarki orqali o'tgan. Bu yo'l uzoq masofali bo'lganligi uchun ayrim hollardagina foydalanilgan [10, 64-65-b.]. Bu davrda Rossiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirishdan nihoyatda manfaatdor edi. O'z navbatida o'zbek xonlari hunarmand va savdo doiralari manfaatlaridan kelib chiqib, Rossiya bilan savdo-sotiqni mustahkamlashga alohida e'tiborlarini qaratdilar [11, 3-b.]. Rus davlati siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun ham savdo-sotiqni aloqalarini rag'batlantirish yo'lidan borgan. Oqibatda, XVI asr oxiri-XVIII asrning birinchi choragida Rossiyaning Tobolsk, Tara, Tyumen va Tomskdagi, keyinchalik Irtish chizig'ida o'z manfaatlarini mustahkamladi. Shu tariqa Rossiya O'rta Osiyo chegaralariga borgan sari yaqinlashib kelaverdi.

Savdo-sotiq aloqalarining rivojlantirilishi esa, maqsad sari olg'a qadam tashlashga xizmat qildi. Borgan sari bunday aloqalar va savdo karvonlari soni ortib boraveradi. Xiva xonligining Moskvadagi elchisi 1643-yilda shunday mazmunda xat yozadi: "Rus yurti Xoji Tarxondan(Astraxan) har yili 40-50 nafar savdogarlar kelib turadi. Ular Urganchda tijoriy faoliyat bilan shug'ullanadilar. Bu yerdan Buxoroga yo'l oladilar. So'ngra Balxga borib, u yerda 2-3 yillab qolib ketadilar" [12, 107-b.]. XVI asrning ikkinchi yarmida Rus podshosi Ivan Grozniy Qozon va Astraxanni bosib olgach [13, 28-35-b.], Rossiya chegaralari O'rta Osiyoga yaqinlashib qoladi. Shundan so'ng, xonliklar va Rossiya o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari yanada mustahkamlanib, doimiy tus oladi. Ko'pgina tadqiqodchilar Jenkinsonning 1558-yilgi O'rta Osiyoga missiyasini rasmiy savdo aloqalarining boshlanishi deb hisoblashadi [14, 153-b.]. Bu davrda xonliklar o'zidan kuchli bo'lgan Rus davlati bilan diplomatik va savdo aloqalarini mustahkamlashga intilganlar. O'z navbatida tarixiy taqozo tufayli Rus davlati ham bunday aloqalarni mustahkamlashni xohlardi. Bu haqida S.V. Baxrushin o'z fikrini quyidagicha ifodalaydi: "Mamlakatning iqtisodiy tarqoqligiga barham berilganligi, uning viloyatlari o'rtasida tovar ayirboshlashning kuchayganligi, savdo munosabatlari o'sganligi, va natijada, joylardagi kichik bozorlarning yagona umumrus bozoriga birlashganligi-markazlashgan yagona davlatning vujudga keltirilishiga sharoit yaratgan asosiy sabablardan biridir" [13, 70-b.]. O'rta Osiyo bozorlariga rus savdogarlari mo'yna, asal, mum va boshqa mollarni sotish uchun olib kelganlar. Ayniqsa, yoritish ehtiyoji uchun mumga talab katta edi [15, 61-b.]. XVII asrda Buxoro va Xiva xonliklari elchilari Moskvaga 16 marta, o'z navbatida shu vaqt oralig'ida rus elchilari Buxoro va Xivaga 9 marta keladilar [16, 6-b.]. Rus podshosi Ivan Grozniy davrida, 1558-1559-yillarda sayyoh Antonin Jenkenson Xiva va Buxoroga yuborildi. U Angliya va Rossiya elchisi sifatida O'rta Osiyo xonliklarida erkin savdo-sotiq qilish, keltirilgan rus va ingliz tovarlariga soliq solishda yengillik berish haqida muzokaralar olib borish uchun yuborildi. Antonin Jenkensonning bu sayohati haqida V.V. Bartold "Yevropa va Rossiyada Sharqning o'rganilish tarixi" asarida Buxoro va Rossiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning o'rnatilishida Rossiya ham emas, buxoro ham emas, aynan Jenkinson tashabbus ko'rsatganligini ta'kidlaydi [14, 154-b.]. 1620-yilda rus podshosi Mixail Fyodorovich ashtarxoniy hukmdor Imomqulixon huzuriga zodagon Ivan Xoxlovni elchi qilib yubordi. U podshoning maktubini xonga yetkazadi. Bu maktubda buxorolik savdogarlar qanday huquqlardan foydalanishsalar, rus fuqarolari ham xuddi shunday huquqlardan foydalanishlari lozimligi ta'kidlangan. Elchilik aloqalari davom etib, 1675-yilda podsho Aleksey Mixaylovich yangi elchi Vasiliy Dudov boshchiligidagi missiyani Buxoroga Abdulazizxon huzuriga

yuboradi. O'z navbatida Buxoro xonlari ham savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatishga harakat qiladi va Rossiyaga elchilarini yuborib turadi. 1643-yilda Buxoro xoni Nodir Muhammadxon(1642-1645) rus podshosi Mixail Fyodorovich huzuriga Qozi Nagayni elchi qilib yubordi. Elchi olib borgan maktubda xonning Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalarini davom ettirish istagi borligi aks etgandi. 1671-yilda Buxoroda bo'lgan rus elchisi Pazuxin podsho Aleksey Mixailovichga Buxoro xoni Abdulazizxonning maktubini olib ketadi. Abdulazizxon maktubda savdo-sotiq munosabatlarini yanada rivojlantirish haqida gapirgandi. 1557-yildan 1682-yilgacha Buxoro va Rossiya davlatlari bir-birlariga 36 marotaba elchi yuborishgan [16, 7-8-b.]. XVII asrda xonliklar asosan, Rossiyaning Volgabo'yi aholisi bilan savdo-sotiq qilar edi. O'rta Osiyo bilan savdo ishlarida Astraxanliklar birinchi o'rinni egallardi. Astraxanliklardan tashqari Saratov savdogarlari, qozonliklar, quyi Novgorodliklar va Astraxan garnizonining kichik harbiy xizmatchilari ham bu savdolarda ishtirok etardi. O'rta Osiyo bilan savdo-sotiq qilgan rus savdogarlari orasida boy Moskvaliklarning o'rni alohida edi. Boy Moskva savdogarlarining ba'zilar 1000 so'm va undan ortiq miqdorda savdo operatsiyalarini amalga oshirgan (XVII asrning bir so'mi oltin hisobida 10–15 so'mga teng bo'lgan) [16, 9-b.]. Diplomatik va savdo aloqalarining rivojlanishi Rossiyada ham, O'rta osiyoda ham hunarmandchilikning taraqqiyoti bilan bog'liq edi [17, 23-b.]. Mintaqaning Buxoro, Balx Xiva va boshqa shaharlaridan paxta va ipakdan tayyorlangan gazlamalar (baxmal, zandana, zarbof), kiyim-kechaklar, uy-ro'zg'or buyumlari(gilam, kigiz, ipak, teri) qimmatbaho toshlar(la'l, yoqut, zumrad) kumush, qalay, selitra, bo'yoqlar, qog'ozlar, otlar va boshqa tovarlarni rus shaharlariga olib borganlar. Rossiya shaharlaridan esa, mo'ynalar, jun matolar, morj va fil suyagi, yog'och idishlar, mum, asal, ov anjomlari, ov qushlari, qurol, oq-dorilar(qo'rg'oshin va porox) olib kelingan [18, 80-84-b.]. XVII asrning so'nggi choragidan XVIII asrning 20 yillari o'rtalarigacha bo'lgan 50 yillik davr oralig'ida Rossiyaga Buxoro xonligidan uch marta elchi kelgan [6, 34-65-b.]. 1705-yilda Olimbek boshchiligidagi bir guruh xonlikning diplomatik xodimlari va Mirkubay Mirg'ordayev rahnamoligidagi savdogarlar guruhi Rossiyaga tashrif buyuradi [19, 52-b.]. Buxorolik savdogarlar o'zlari bilan juda katta miqdordagi tovar va mahsulotlarni olib boradilar. Ular Rossiyaning turli shaharlarida bo'ldilar. Astraxan shahrining o'zida ularning 6 ming so'mlik tovarlari sotiladi. 1705-yilning iyulida rus podshosi Pyotr I buxoro xoni Ubaydullaxonga elchi Olimbek orqali javob maktubini yubordi. Unda ikkala davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlar va savdo aloqalarini davom ettirilishi ta'kidlanadi. Pyotr I xonga o'z sovg'a-salomlarini, jumladan, rus oltinini yuboradi. Keyingi safar oradan 11 yil o'tib, 1716-yilda amalga oshirildi.

Buxoro elchilariga Qulibek To'pchiboshi boshchilik qildi. Bu elchilik tarkibi elchining ayoli, farzandlari va savdogarlarni o'z ichiga olgan jami, 62 kishidan iborat edi. Buxoro xoni Abulfayzxon elchilar bilan birga 36 nafar rus asirlarini jo'natib yuboradi [20, 545-552-b.]. Buxoro xoni elchi orqali Rossiya bilan tinchlik o'rnatish, savdo aloqalarini davom ettirish, Astraxanda nohaq ayblanib, Kol oroliga bir umrga surgun qilingan buxorolik savdogarlarni avf etish va Buxoroga elchi yuborishni iltimos qilgan edi [17, 52-b.]. Qulibek To'pchiboshi boshchiligidagi elchilar 1716-yilning iyunida Peterburgda bo'ladilar. Pyotr I Florio Benevinni elchi qilib Buxoroga yuborishga qaror qildi. Unga juda muhim topshiriqlarni bajarish vazifasi yuklatiladi. Jumladan, Yo'l-yo'lakay barcha shaharlar, qishloqlarni, qal'a va savdo manzilgohlarini puxta o'rganish, Kaspiy dengiziga quyiladigan daryolarni aniqlash, Buxoro xonligining harbiy ahvoli haqida ma'lumot to'plash, davlatning qo'shni xonliklar va Turkiya bilan munosabatlari qandayligini aniqlash, Abulfayzxoniga rus podshosining yordami kerak ekanligi yo yo'qligini surishtirib bilish. Shu bilan birga, elchiga Rossiya-Buxoro savdo munosabatlarini yanada kengaytirish yo'llarini topish, xonliklar yerlarida qazilma boyliklar, ayniqsa oltin bor-yo'qligini aniqlash va uni qidirib topish uchun xizmat qiladigan qal'alar barpo etish istiqbollari o'rganish, shuningdek bu tadbirga buxoroliklarning aniq munosabatini shurishtirib bilish alohida vazifa qilib topshirilgan edi [16, 13-b.]. 1721-yil may oyining oxirlarida elchi Florio Benevin uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tib, Buxoroda keladi [21, 54-b.]. Florio Benevini 1721-1725-yillar davomidagi sayohati davomida Buxoro xonligining iqtisodiy, siyosiy va xalqaro aloqalari haqidagi ma'lumotlarni to'pladi [22, 5-b.]. Xonliklar va Rossiya o'rtasidagi savdo-sotiq va diplomatik munosabatlarning yaxshilanganligi ularning iqtisodiy hayotiga samarali ta'sir ko'rsatdi. XVIII asrdan boshlab, Rossiyada metallurgiya sanoatining rivojlantirish zarurati tug'ilganligi sababli rus hukumati O'rta Osiyodagi qazilma boyliklarga, jumladan, Ulug'tovdagi qalayi konlariga e'tibor qarata boshladi [16, 11-b.]. Rossiya ayniqsa, xonliklar hududida oltin konlari ko'p ekanligi haqidagi ma'lumotlarni bilgach, yanada bu masalaga qiziqqa boshladi. Podsho Pyotr I hukmronligining dastlabki yillarida Rossiya bilan o'zbek xonliklari o'rtasidagi aloqalar oldingi davrlardagiga nisbatan biroz boshqacha tus olgan bo'lsa ham, u avvalgidagi kabi xonliklar bilan savdo munosabatlarini mustahkamlashga va ular ustidan hukmron bo'lishga intildi. Pyotr I Kaspiy dengizining savdo-sotiq va geosiyosiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini bilardi. Shuning uchun u Kaspiy dengizi ustidan Rossiya hukmronligini o'rnatishni va rus fuqarolarining Kavkazorti, Eron, O'rta Osiyo xonliklari va Amudaryo orqali Hindiston bilan savdo-sotiq aloqalarini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi [17, 53-b.]. Rus podshosi O'rta Osiyo va Hindiston

bilan savdo-sotiq munosabatlarini kuchaytirishga harakat qilib, bir nechta ekspeditsiyalar tashkil etdi. Masalan, 1714-yilning may oyida Jarkent shahriga ekspeditsiya uyushtirildi. Ammo, bu ekspeditsiya qalmiqlar qarshiligi tufayli amalga oshmadi. Shundan so'ng, rus podshosi bildiki, O'rta Osiyoga muvaffaqiyatli ekspeditsiyalarni amalga oshirish uchun uning chegaralariga yaqin hududlarga qal'alar qurish kerak. Shunday qal'alardan biri 1717-yilda Irtish daryosi bo'yida barpo etildi [23, 11-12-b.]. 1714-yilgi knyaz Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining muvaffaqiyatsizlik bilan tugaganligi ham Pyotr I ning O'rta Osiyoda Rossiyaning ta'sirini mustahkamlash va Hindiston bilan savdo aloqalarini o'rnatish niyatidan qaytara olmadi. Pyotr I davridan boshlab Rossiya-O'rta Osiyo munosabatlarida yangi davr boshlanganligini ko'rish mumkin [24, 53-b.].

O'rta Osiyo davlatlari va Hindiston o'rtasidagi savdo-sotiq va diplomatik munosabatlar o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Shu tarixning o'ziga xos va ajralmas qismi XVI-XVIII asrlardagi Buxoro xonligi va Hindiston o'rtasidagi munosabatlardir. Chunki, bu davrda O'rta Osiyoda Buxoro xonligi, Hindistonda esa, Boburiylar imperiyasi kabi yirik davlatlar vujudga kelgandi va ular orasidagi munosabatlar e'tiborga loyiqdir [25, 4-b.]. Ko'rsatilgan davrda Buxoro va Hindistonga qo'shni bo'lgan davlatlarning tazyiqlari ular o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlanishiga olib kelgan. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro xonligi va Hindiston o'rtasida savdo aloqalari rivojlana boshlaydi. Bu davrda O'rta Osiyodan Qobul va Qandahor orqali Hindistonga o'tadigan karvon yo'llarining ahamiyati yanada ortadi. Chunki, XVI asr boshlaridan boshlab Yevropalik portugallar Hindistonning ko'pgina port shaharlarini bosib oladi. Natijada yarim orol davlatlari, shu jumladan, Buyuk Boburiylar imperiyasining dengiz orqali savdo aloqalari cheklanadi [25, 14-b.]. 1552-yilda Qozonning va 1556-yilda Astraxanning Ivan Grozniy tomonidan Rossiyaga qo'shib olinishi Qobul karvon yo'li orqali O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi savdoning rivojlanishiga olib keldi. Chunki, O'rta Osiyolik savdogarlar hind tovarlarini rus bozorlariga yetkazib berishda va rus mollarini Hindiston o'tkazishda vositachi bo'lganlar. Natijada xonliklar va Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari rivojlandi va bu o'z navbatida Buxoro xonligi va Hindiston munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoga tashrif buyurgan Jenkinson Buxoro xonligining qo'shni davlatlar bilan faol savdo iqtisodiy aloqalar o'rnatganligini ta'kidlab, "Buxoro shahrida har yili savdogarlarning anjumani bo'lib, bu yerga Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa davlatlardan savdogarlar kelib, o'z mollari bilan ishtirok etadi" deb yozgan edi [26, 184-b.]. Jenkinson o'z fikrini davom ettirar ekan, Hindistonlik savdogarlar Buxoroga salla(bosh kiyim) uchun ishlatiladigan

harir oq mato, kuylak uchun ishlatiladigan oq matolar olib kelib sotishlarini va Buxorodan esa, ipak matolar, oshlanmagan teri, otlar va qullar olib ketishlarini qayd etgan [26, 184-b.]. Hindistonlik savdogarlar olib kelib sotadigan asosiy tovarlar indigo-nil bo'yog'i va ziravorlar edi. Indigo shu darajada ko'p olib kelinganligidan uni sotish uchun hind savdogarlari Buxoroda yillab qolib ketishgan [3, 10-11-b.]. Buxoro xonligi va Hindiston o'rtasida savdo-sotiq ishlarining rivojlanishi davlatlararo munosabatlarning ham yaxshilanishiga olib keladi. Buxoro shahrida alohida hindlar yashaydigan mahallalar ham vujudga kelgan. Muarrix Muhammad Yusuf Munshiyning yozishicha, Buxoro shahrida hindlar istiqomat qiladigan alohida mahallalar mavjud bo'lib, ularni o'z boshliqlari (oqsoqol) boshqargan [27, 84-b.]. Buxorolik savdogarlar Rossiyadan qunduz, suvsar, ov qushlari, morj tishi, zotli itlar, oyna va boshqa shunga o'xshash tovarlarni Hindiston hukmdorlari uchun maxsus olib borganlar [28, 79-b.]. Diplomatik va savdo munosabatlari XVII asrda ham munosib davom ettirildi. Muhammad Yusuf Munshiyning yozishicha, XVII asrning boshlarida Buxoro xoni Imomqulixon Hindistonga Boburiy hukmdor Jahongirshoh(1605-1628) huzuriga qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan o'z elchilarini yuboradi. Jahongirshoh tomonidan elchilar mamnuniyat bilan qabul qilinadi. Oradan biroz vaqt o'tgach, Jahongirshoh ham Buxoro xoni Imomqulixon huzuriga Hakim Hoziq boshchiligidagi o'z elchilarini yuboradi [27, 8-9-b.]. Jahongirshohdan keyin taxtga o'tirgan Shoh Jahon davrida ham yaxshi qo'shnichilik munosabatlari davom ettirildi. Chunki, Eron va Hindiston munosabatlarining keskinlashuvi boburiy hukmdorning Imomqulixon bilan do'stona munosabatda bo'lishini talab qilardi. 1632-yilda Hindistonga Buxoro elchisi Vaqqos Xoji tashrif buyuradi [29, 52-b.]. Shu tarzda o'zaro aloqalar davom etaverdi. Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, ashtarxoniylar Imomqulixon davrida Buxoro va Hindiston munosabatlari do'stona tarzda ko'rinsa ham, ziddiyatlardan xoli emasdi. Shunday bo'lsada, elchilik va savdo aloqalari keyingi hukmdorlar davrida ham davom etdi.

XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi va Hindiston o'rtasidagi savdo aloqalari bu ishga mas'ul bo'lgan maxsus savdogarlar guruhi tomonidan amalga oshirilgan va bunday shaxslarga juda katta huquqlar berilgan. Bunday savdogarlar boj to'lamay savdo qilish huquqiga ega edilar. Ularga hatto maxsus farmon bilan ma'lum shaharlar va viloyatlar o'rtasida savdo-sotiq qilish huquqi berilgan. Masalan, Balxlik Oxunxo'ja Avaz va uning sheriklaridan iborat savdogarlar guruhiga Boburiy hukmdor Avrangzeb Olamgir tomonidan hind saroyi ehtiyojlari uchun kerak bo'ladigan mollarni olib kelish huquqini beruvchi yorliq berilgan. Bu yorliq orqali savdogar Oxunxo'ja Avaz quruq mevalar, otlar, tuyalar va qullarni Hindistonga olib borgan. Hindistondan esa, turli

xil matolar va mollarni xonlik shaharlariga keltirib sotgan [29, 17-18-b.]. Buxoro xonligi va qo'shni davlatlar o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari o'ziga xos qonun-qoidalarga asoslangan holda amalga oshirilgan. Masalan, xonlik shaharlariga qo'shni davlatlardan kelayotgan savdo karvonlaridagi mollar poytaxt Buxoroga kelguniga qadar to'xtatilmagan va tekshirilmagan. Poytaxtda zakot to'langach, tovarlar boshqa shaharlarga sotish uchun olib ketilgan [30, 257-b.]. Savdogarlar keltirilgan molning 1/40 ulushi miqdorida zakot to'lagan. Zakot pul shaklida yoki keltirilgan tovarning qirqdan birini berish hisobidan to'langan. Buxoro xonligi hududida soliq to'lamasdan savdo qilish huquqiga asosan, xon, shayxlar va Balx hokimi ega edi. Xonlik hududida ham, uning xalqaro munosabatlarida ham jo'ybor shayxlarining mavqeyi baland bo'lganligi bizga ma'lum. O'zi ham mashhur Jo'ybor shayxlari xonadoni vakili bo'lgan muarrix Muhammad Tolib o'zining "Matlab ut-tolibin" asarida ushbu oila shayxlarining xalqaro munosabatlardagi o'rni haqida so'z boradi. Jumladan, Hindistonda 1605-1628-yillarda boburiylar taxtini boshqargan hukmdor Jahongirshoh jo'ybor shayxlaridan bo'lgan muarrix Muhammad Tolibning otasi Buxoro Shayxulislomi Tojiddin Xasanxoja ikki marotaba ellik ming xoniy, nafis gazlamalar va buyumlardan iborat sovg'a-salomlar yuboradi. O'z navbatida shayxning unga munosib hadyalar bilan javob qaytargani ta'kidlanadi [31, 213-214-b.]. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har ikkala tomonning bir-birlariga hadya va sovg'alari turli xil buyumlardan iborat bo'lsa-da, ularning umumiy qiymati bir-biriga monand bo'lgan. Bu narsa bir-birlariga sovg'a-salomlar qilish niqobi ostida olib boriladigan bojsiz savdo-sotiq sotiqning o'zginasi edi. Qiziq jihati bunday maqsadlarda yo'llangan "hadya va sovg'a-salomlar" karvoni davlat chegaralaridan o'tar ekan, ularning xavfsizligi kafolatlangan. Ular davlat qurolli guruhleri himoyasida tegishli manzilga talofatsiz yetkazilgan. Boburiy hukmdorlar tashqi savdodan keladigan boylikni daromad orttirish manbalaridan biri deb bilgan va xalqaro munosabatlarda faol ishtiriok etganlar [29, 18-19-b.]. Shuni ham ta'kidlash lozimki, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarning chigallashuvi yoki qaysidir davlatning boshqasiga tazyiqlari savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojiga ham salbiy ta'sir qilgan. Jumladan, XVIII asrda Eron hukmdori Nodirshohning Hindistonga, so'ngra O'rta osiyo davlatlariga hujumlari Buxoro xonligi va Hindiston o'rtasidagi savdo va diplomatik aloqalarni susayishiga olib keldi. XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida iqtisodiy-siyosiy inqiroz yanada kuchaydi. Hindistonda ham siyosiy vaziyat barqaror emasdi. Shunday bo'lsada, bu mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar to'xtab qolmadi. Buxoro xonligining qo'shni bo'lgan davlatlar Eron va Afg'niston bilan savdo aloqalari ham ahamiyatga ega edi bo'lgan. XVI asrda O'rta Osiyoda bo'lgan Jenkinson xonliklar bilan Eron o'rtasidagi

savdo aloqalari haqida o'z esdaliklarida qayd etgan. Uning ma'lumotiga ko'ra, O'rta Osiyo bozorlariga eronlik savdogarlar ip gazlama, matolar, surp va zotli otlarni olib kelganlar. Lekin, ikkala davlat o'rtasidagi siyosiy-harbiy vaziyatning barqaror bo'lmaganligi savdo aloqalarini rivojiga to'sqinlik qilgan. Bundan tashqari, savdo karvonlariga tez-tez qaroqchi to'dalarning hujumlari ham aloqalarni susaytirgan [26, 185-b.]. Ikkala davlat o'rtasidagi manfaatlar to'qnashgan joy bu-Xuroson edi. Hindiston, O'rta osiyo va janubiy-g'arbiy osiyoni bog'lab turuvchi bu hudud muhim ahamiyatga ega edi. Buxoro xonligining Buxoro, Balx va Badaxshon shaharlari mintaqadagi yirik savdo markazlari bo'lib, bu yerga Eron, Hindiston, Afg'oniston, Rossiya va boshqa davlatlardan savdogarlar tashrif buyurganlar. Eronlik savdogarlar Buxoroga kelib savdo yarmarkalarini tashkil etishgan. Ular Erondan oltin, kumush va mis keltirganlar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Buxoro xonligi tog'lari oltin, kumush va shunga o'xshash qazilma boyliklarga boy bo'lgan. Lekin, davlat bu madanlarni yetarlicha qazib olmagan. Chunki, qazib olish juda sodda usullarda amalga oshirilgan, unumliroq texnologiyalar bu davrda yetarlicha o'zlashtirilmagandi [3, 35-b.]. Buxorolik savdogarlar Erondagi Mashhad, Isfaxon, Karshan va Irej shaharlariga tijorat maqsadida tashrif buyurganlar. Buxoro xonligi savdogarlari qirg'iz ko'chmanchilaridan Eronga olib borib sotish uchun tuyalar xarid qilganlar. Bu tuyalar va qo'ylar suruvlari Eronga haydab borilgan va sotilgan [32, 23-b.]. Shuningdek, buxoroliklar Eronga qo'y jini, quritilgan mevalar, qizil bo'yoq va boshqa mahalliy mollarni olib borib sotganlar. Erondan esa, giyohvand modda(teriak), ingliz mollari, shakar va charmdan ishlangan buyumlar olib kelingan. Bu mollar asosan, Mashhad shahridagi bozorlardan xarid qilingan va bu shahardan Buxorogacha bo'lgan masofani 10 kun ichida bosib o'tish mumkin bo'lgan. Ashtarxoniylar davrida xonlik bozorlariga qo'shni Afg'oniston savdogarlari ham doimiy tarzda kelib turganlar. Bu yerda ular xuddi buxorolik savdogarlar Rossiya-Hindiston o'rtasida vositachilik qilganlaridek, Buxoro-Hindiston o'rtasida shu vazifani bajarishgan. Afg'on savdogarlari asosan, issiq fasllarda juda ko'p sonli tuyalardan iborat savdo karvonlari bilan Buxoro bozorlariga kelishgan. Qish faslida baland Hindukush tog'laridan o'tish yo'llarining mashaqqatli ekanligi ularni asosan yozda yo'lga chiqishga majbur qilgan. Ba'zida afg'on savdo karvonlari 3-3,5 mingtagacha tuyalardan iborat bo'lgan. Ular xonlik bozorlariga asosan, hind-ingliz mollari olib kelganlar. Bunday mollar turli xil qog'ozlar, ipak, jun mahsulotlari, kashmir ro'mollari, indigo va opiydan iborat bo'lgan. Shuningdek, Qobuldan ko'k va oq chiziqli matolar olib kelingan. Bunday matolar issiq fasllarda musulmon erkaklar sallasini uchun ishlatilgan. Xonlik savdogarlari ham Afg'oniston bozorlarida faol bo'lishgan. Masofaning yaqinligi, xonlik tovarlari uchun

qulay bozorning mavjudligi aloqalarning rivojiga xizmat qilgan. Buxorolik savdogarlar Afg'oniston bozorlariga ipak va paxta tolasidan tayyorlangan matolar, rus mollari jumladan, temir buyumlar, sandiqlar va boshqalarni sotish uchun olib borganlar[22, 72-b.].

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligining Rossiya, Hindiston, Eron va Afg'oniston bilan diplomatik va savdo aloqalari tarixi va bu munosabatlarning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni haqida to'xtalib o'tilgan. Bu jarayonlarni yoritishda Yevropalik va Rossiyalik elchilar, sayohatchilar va sharqshunoslarning asarlari va esdaliklari shuningdek, mahalliy tarixshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qimmatli ma'lumotlar hisoblanadi. Shuning uchun ham bu ma'lumotlar Buxoro xonligining qo'shni davlatlar bilan XVII-XVIII asrlardagi iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalari tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент., “Шарк”. 2001.
2. Иванов П.П., Очерки по истории Средней Азии (XVI в. - середина XIX в.) Москва - 1958.
3. Алимова Р.Р. Ўрта Осиё хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари(XVI-XX аср рус тарихшунослиги ва манбалари асосида). Тошкент. 2017.
4. Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2003.
5. Ханыков Я.В. Пояснительная записка к карте Аральского моря и Хивинского ханства. Записки Имп. Рус. Географ. Общества. Кн. V. 1851.
6. Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – Пг., 1915.
7. Руссов С.В. Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукавкина в 1753 году, с приобщением разных известий о Хиве с отделенных времен доньше. Журн. Мин.Внутр. Дел. Санктпетербург.1840.
8. Зиёев Ҳ. Ўзбекитоннинг Сибир орқали Россия билан элчилик ва савдо алоқаларининг ўрнатилиши ҳамда ривожланиши тарихи(қадимги даврлардан то XX аср бошларигача) III жилд. Тошкент. “ЯНГИ АСР АВЛОДИ”. 2012.
9. Костомаров Н.И. Очерк торговли Московского государства в XVI и XVII столетиях. Санкт-Петербург. 1862.
10. Юлдашев М. Ю. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв. Ташкент: Наука Узб. ССР, 1964.
11. Зияев Х.З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в

XVI—XIX vv. Tashkent. “ФАН” 1983.

12. История народов Узбекистана. Т. 2., Тошкент, 1947.

13. Бахрушин С.В. Иван Грозный. Москва. «Полиграфкнига». 1945.

14. Бартольд В. В. История изучения Востока в Европе и в России. С-Петербург. 1911.

15. Фехнер М.В. Торговля русского государства со странами Востока в XVI веке. Москва. 1956.

* * *

Mo‘minov Nodirbek Botir o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

XVI-XIX ASRLARDA BUXORO XALQLARINING ETNIK TARIXI

Annotatsiya: Bizga ma’lumki O’rta osiyoga xalqlari tarixning barcha davrlarida ham dushmanning qilichi qaratilgan yer bo’lib kelgan. Yunon-Makedonlar, Arablar, Eronliklar, Mo’g’ullar va boshqa xalqlar bizning diyorimizga yurishi natijasida ushbu mintaqada xalqlarining etnik tarkibi ham o’zgarib borgan. XVI asrdan boshlab endilikda ko’chib o’rnashgan xalqlar sababli ham etnik tarkib o’zgarib borgan. Ushbu maqolada ham Buxoro xonligi, so’ngra Amirliги davridagi etnoslar va unga dahldor bo’lgan uzoq-yaqin o’tmish tarixi bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Movarounnahr, Barlos, O’zbek, Muhammad Yusuf Munshiy, To’qsabo.

XV asr oxiridan boshlab O’rta Osiyoda kechgan etnodemografik o’zgarishlar bois, Dashti qipchoqdan juda ko’p sonli ko’chmanchi aholining Movarounnahr, Xorazm hududlariga kirib kelishi va ushbu hududlarda o’troq hayot tarziga o’tishi, mintaqada siyosiy hayotida ham o’z ta’sirini o’tkazmasdan qolmadi. Yagona hududiy siyosiy birlik o’rniga Bu yerda Buxoro va Xiva, so’ngra Qo’qon xonligi tashkil topishiga sabab bo’ldi. Shayboniylar sulolasi davrida, bu davlat hududiga Movarounnahr, biroz vaqtdan so’ng Turkiston, Xuroson va ba’zi xollarda Xorazm ham kirgan. Xonlikning xududiy chegarasi haqidagi fikr ko’plab tadqiqotchilar, shu jumladan V. Bartold va R. Muqminova ka’bi olimlarning ishlarida ham o’z aksini topgan.⁷⁸

O’zbeklar etnik tarixida XV-XVI asrlar muhim ro’l o’ynagan. Ushbu bosqichda O’rta osiyoga Mang’it, Qo’ng’irot, Nayman, Uyg’ur, Saroy,

⁷⁸ Бартольд В.В. Узбекские ханства / Соч. В. 9 т-т. Москва. 1963. Т. II.

Djurayeva Nargis. O‘taganova Dilnoza. Temuriylar davrida sog‘lom avlod tarbiyasi.....	229
Sattorov Muzrob. Mamataliyeva Mohidil. Samarqand rasadxonasining instrumental jihozlari. Asosiy vosita.....	232
Elmurodova.D.Sh, Haydarova.N.S. Buyuk sarkarda-davlat arbobi Amir Temurning pedagogik qarashlari, ilm fanga qo‘shgan hisssasi.....	238
Masharipova G.K. Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi.....	241
Sattorov Firdavs. Abdiyeva Odina. Mirzo Ulug‘bek va uning ilmiy maktabi.....	247
Muqimova .R.R. Tarixiy manbalarda “Amir Temur” siymosi.....	252
Jonqobilov Jahongir. Mamasaidova Ruxshona. Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi.....	255
Sa‘dullayev Aziz. Temuriylar davlatchiligida ijtimoiy psixologik hayot.....	261
Yusupov Shakir. Amir Temur va Temuriylar davrida Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga doir yozma manbalar tahlili.....	269
Suyunov Behruz. Temuriylar davrida davlat boshqaruvining tashkil etilishi.....	278
Mengliboyev Akmal. Qalandarova Madina. Temuriylar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanishi.....	282
Sanginova Iroda. Temuriylar davlatchiligi taraqqiyoti davrida mahallalarga qaratilgan e‘tibor va ularning natijalari.....	287
Barotov Sirojiddin. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligining tashqi savdo munosabatlari.....	290
Mo‘minov Nodirbek. XVI-XIX asrlarda Buxoro xalqlarining etnik tarixi.....	302
Сайдиев Суярбек. Амир Темур даврида инсон ресурсларини бошқариш.....	306
Илмуродова Феруза. Амир Темур давлатининг дипломатиясига бир назар.....	313
Бейсенов Кенжабай. Амир Темурнинг ҳарбий юришлари ва марказлашган давлат тузиш йўлида жаҳон ҳарбий санъатига кўшган ҳиссаси.....	321
Мурадов Фарход. Развитие Тимуридского государства как важного фактора развития народов средней азии.....	332
Абдуллаева Хулкар. Мирзо Улуғбек даврида олий таълим.....	336
Умаров Икромжон. XIII-XIV асрларда Марказий Осиёда содир бўлган этносиёсий жараёнлар.....	339
Dadaboyev Farhodjon, Ismoilov Ixtiyorjon. Amir Temur davrida tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-huquqiy ahamiyati.....	348

Ergashev Shohjahon, Do'sanova Diyora. Ulug'bek rasadxonasida faoliyat yuritgan Ali Qushchi, Mirim Chalabi va Nizomiddin Birjandi.....	354
--	-----

IV SHO'BA

TURKIY XALQLAR SHAKLLANISHIDA FALSAFIY, SIYOSIY, MADANIY VA IJTIMOIIY QARASHLARNING ZARURATI

Pardayev Toshkentboy. Surxon vohasida yashovchi ayrim etnik birliklar tarixidan lavhalar.....	363
Жумаев Жонибек. Буюк алломаларимизнинг диний тафаккур соҳасидаги мероси.....	369
Гаффоров Шокир. Россия империяси даврида самарқанд мадрасалари фаолияти.....	377
Zikirova Nodira. Turkiy xalqlar shakllanishida falsafiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy qarashlarning mohiyati.....	393
Nazirov Baxtiyor. Turkiy xalqlar birligida o'zbek milliy kurashining roli va uning hozirgi zamondagi ahamiyati.....	397
Hayitov Shodmon, Qayumov Toshpo'lot. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida milliy masala.....	404
Алимова Махфуза. Сунаи ҳадис тўпламларининг хусусиятлари.....	412
Qilichev.R.E, M.J.Komilova. Turk hoqonligida diniy tasavvurlar.....	416
Жўраев Мухриддин. Имом Термизий фаолиятида илмий сафарларнинг аҳамияти.....	419
Toshboboyev Maqsud. Zamonaviy innovatsiyalarni ta'lim jarayonlariga bog'liqligi.....	427
Qodiraliyev Abror. Boshqaruv jarayonida rahbar ma'naviyati.....	430
Usmonov Nurmuhammad. Mehmed II Fotihning hayoti va urushlari.....	435
Xayrullayeva Dilnoza. Ravshanova Marjona. Abu Ali ibn Sinoning hayot yo'liga nazar.....	439
Ahmedov Sardor. Tojiklar orasida non va xamirli taomlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	444
Aliyeva Shoir. Ilmiy bilishda ijodkorlikning o'ziga xos xususiyatlari.....	449
Mamatqobulov To'liq. Ashtarxoniylar-safaviylar munosabatlarida Usmoniylar davlatining roli.....	453
Boymirzayev Sarvar. O'zbekiston tarixi davlat muzeyida saqlanayotgan V-VIII asrlarga oid topilmalar.....	461
Bebitov Maqsud. Usmoniylar saltanatida Turkistonlik (o'zbek)lar diasporasi shakllanishining dastlabki bosqichlari.....	467
Abdullayev Jamshid. O'zbekiston va Turkmaniston diplomatik munosabatlarida chegara masalasi 1924-1991.....	474